

“BERDAQ: QORAQALPOQ ADABIYOTINING BUYUK SARKORI”.

Toshkent Pediatriya Tibbiyat instituti

2-pediatriya va Fundamental Tibbiyot

fakulteti talabasi Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi

Email: jamoliddinovnanasibaxon7@gmail.com.

Tel: +998 93) 280 – 67 – 05.

Annotatsiya: Berdaq qoraqalpoq xalqining buyuk shoiridir. Uning ijodi milliy adabiyotimizning rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. Mqaolada Berdaqning hayoti va ijodi haqida batafsil ma'lumot beriladi, uning Qoraqalpoq adabiyotiga qo'shgan hissasi, she'riyatidagi badiiy yuksaklik va o'ziga xos uslubi tahlil qilinadi. Berdaq ijodining hozirgi zamon ma'daniyati va adabiy jarayoniga ta'siri yoritiladi. Maqola yosh avlod uchun ibrat va ilhom manbai sifatida Berdaqning adabiy merosini o'rganishning ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Tarixiy shaxsiyat, mustazib tuzum, fematika, poeziya, falsafa, sarkor, feodal, mo'g'ul imperiyasi.

Qoraqalpoq xalqi o'z tarixida ko'plab ulug' adib va shoirlarini yetishtirgan. Bu ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi va ulkan iste'dodidan dalolat beradi. Ana shunday buyuk shaxsiyatlardan biri – Berdaq. U Qoraqalpoq adabiyotining yorqin yulduzlaridan bo'lib, xalqning tarixi, og'ir hayotiy sinovlari va umidlari uning she'riyati orqali aks etgan.

Berdaq (1827 – 1900) o'z davrining mashhur shoiri, Qoraqalpoq xalqining yetuk vakili hisoblanadi. Uning ijodi Qoraqalpoq xalqining kechmishlaridan, og'ir kunlaridan ilhomlanib yozilgan. Berdaqning she'rlari faqatgina adabiy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki ijtimoiy va ma'rifiy

vazifalarni ham bajargan va she'riyatining asosiy o'ziga xosligi – xalq tiliga yaqinligi va soddaligi. Uning asarlarida xalqning qayg'usi va shodligi, umidi va g'am – tashvishlari badiiy tasvirlangan. Shoirning til boyligi, so'z tanlovi va ritmika yaratishdagi mahorati uni xalq shoiriga aylantiradi. Berdaqning ijodi Qoraqalpoq adabiyotining rivijlanishiga katta turtki berdi. U xalq og'zaki ijodiyotini ijodiy ravishda qayta yaratdi. Uning ijodi keyingi avlod adiblari va shoirlari uchun katta mакtab bo'ldi. Bugungi kunda Berdaqning ijodi milliy adabiyotimizning asosiy yo'naliшlaridan biri sifatida o'rganilmoqda. Shoirming she'rlari maktab va oily o'quv yurtlari dasturlarida alohida o'rин egallaydi. Yosh avlod Berdaq ijodiyoti orqали milliy qadriyatlar va o'zlikni anglashga o'rganmoqda.

Berdaq o'zining og'ir ahvolda yashagani, yoshligida ovulma – ovul yurib og'ir mehnat qilganini quyidagi satrlarda jo etgan

Bo'ljadi hech yerda manzil – makonim,

Zahr – u zaqqum bo'ldi ichgan – yeganim.

Aytmas – bo'ljadi mening dganim,

Kuyganlikdan jon qiynalur xalq uchun.

Ammo shoirimiz barcha qiyinchiliklarni xalq, el – ulus farovonligi yo'lida qiyinalish deb qabul qiladi. Og'ir kunlar o'tib, yaxshi, farovon, ozod kunlar kelishiga ishonadi:

Shoir edim, ko'zim ko'rganin yozdim,

Ko'nglimning bilganim, sezganim yozdim.

Zamon jafosidan sarg'aydim, ozdim,

Kelurmi deb yaxshi kunlar xalq uchun.

Berdaqning ozodlik haqidagi ilinjlari u yoki bu darajada boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan. Umr bo'yи haq va haqiqat deb kurashgan shoir ishonadiki, yashnab, yayrab yoz fasli keladi.

Haq qayda, haqiqat qayda?

Shunday azob hamma joyda.

To'qlaridan yo'q, qittak foyda,

Yashnab, yayrab yoz kelurmi?

Ma'lumki, Berdaq juda ham havotirlangan, qoraqalpoq biylarning orasidagi anglashmovchilik uchun Xiva xonligiga qarshi chiqqanlarida. Berdaqning "Shajara" degan dostonida bizlar shoirning avlodlar bir – biriga qarshi chiqqanliklari uchun havotirga tushganini ko'rishimiz mumkin.

Shuning uchun Berdaq, odamlarning bir – birlariga yaxshi munosabatda bo'lishishini, hunarmandlikni rivojlanтирish, odamlarning bilimdon bo'lishini, xalqiga ya'ni yurtiga tenglik olib keladi degan. Shoirning o'ylashicha, avlodlarning birligi ya'ni, mustaqillik uchun kurashlari xalqqa va yurtga katta yutuq olib keladi va qoraqalpoq yurtini saqlaydi deb aytgan. Shoirning bir orzusi bor edi u ham xalqiga xizmat ko'rsatish bo'lgan. Xalqning mard o'g'lonlari o'z xalqi va yurti uchun bor kuchuni berishlari, kerak bo'lsa, jonini ham berishlari lozim degan. Bu haqda biz Berdaqning quyidagi so'zlaridan bilib olamiz. "O'z

tug'ilgan yurting uchun, sen ham yashab ham o'lishing zarur, o'z yurtingni baxti uchun xizmat qilgin, bundan ham ortig'i nima bo'lishi mumkin" degan edi.

Buyuk vatanparvar, yurtining qahramonlarini o'z xalqiga xizmat qilishlarini aytgan, ammo boylar va feodallar Berdaqni so'zlari sariq chaqaga ham arzimasdek tuyulardi ularning nazalarida. U paytda hokimyat donishmand insonlarni taqib ostiga olar edi. Shoirning xalq va uning bilimdon, adolatli sardori haqidagi fikrlari uzoq vaqt davomida oddiy xalqning orasida yangragan. Shoir o'tgan kunlarining tarixini o'rganib chiqqan, tarixdagi ma'lumotlarni o'rganib chiqqan edi. Shoir o'z xalqini boshqa adolatli shoh yoki xon bo'lishini istardi.

Bu asar yozilgandir,

Kambag'alning hayoti notinch.

Zamon kunda – kun o'zgarar, yomon tomonga,

Adolatli podshoh kelarmu?

Shoirning bu to'rtligi bilan u zamonni o'zgarishiga umid bog'laganligini va bu umidi hech qachon so'nmaganligini bilib olamiz.

Bir tomondan shunga e'tibor berishimiz kerakki, bu adabiyotlar o'sha davrning boylarining, juda ko'p hattotlarning qo'llaridan o'tgan. Bu yerda ular badiiy adabiyotda juda ulug'langan. Qoraqalpoq folklorida "Alpomish", "Masposhsho" va boshqa dostonlar bor. Bu dostonlarda qahramonlar ham bahodir, ham podsho yoki xon bo'lganlar. Ular esa adolatli, bilimdon va xalqni sevuvchi, yurtni sevuvchi xalqning boshliq insonlar timsolida gavdalanganlar.

Qoraqalpoqlar haqidagi dostonlar ta'sirida, Berdaq qahramonlar, botirlar haqida orzu qiladi. O'zining "Izladim" degan she'ridda shoir bu orzusini berkitilmagan, balki uni ochiq ayta olgan. Shoir shu she'ridda shunday yozgan edi.

Sherdek yuragi bor, haqiqiy qahramonni izladim,

Quyonni qilmishi o'ldirar, yigitni g'urur o'ldirar.

Agarda "Edigey va Alpomish" tirilganida,

Men ularni izlab topardim.

-degan edi.

Edigey tarixiy qahramon, XV asrning boshida Oltin O'rданing amiri bo'lgan. Qoraqalpoq "Edigey" dostonida u To'xtamish xonning qo'lida ko'pgina azob chekkan, lekin dostonda u adolatli amir deb yozilgan. Ammo o'zining qattiq qo'lligi bilan Edigey o'zi haqida inkor hotiralar qoldirgan. Shuning uchun dostondagi ma'lumotlar to'g'ri kelmaydi. Edigey (1352 – 1419) No'g'ay O'rдaga asos solgan. 1399 – yildan Oltin O'rданing boshlig'i, 1408 – yilda Rusga hujum qilgan, 1419 – yilda hayotdan ko'z yumgan.

Chingizzon (1155 – 1227)¹ taniqli tarixiy shaxs, mo'g'ul imperiyasini asoschisi, xoni bo'lgan. Osiyo bu Chingizzon haqida ma'lumotlar to'g'ri va haqiqatdir.

Podshohlarning tarixi haqida ularning janglari haqida ularning o'zлari ishongan yozuvchilari yozar edi. Ular esa podshohga, xonga yoqadigan ma'lumotlarni yozishga majbur edilar. Ko'p vaziyatlarda podshohlarning buyruqlari bo'yicha ularning hayoti haqida va ular istagan narsalari haqida

¹ Худойбергенов К. Мировоззрение Бердахаю Нукусб 1987. С325.

www.pedagoglar.uz

39-son 1-to'plam Yanvar 2025

yozganlar. Ko'p olimlarning asarlari, shoirlarning she'rlari va yozuvchilarning ko'p tarixiy ma'lumotlari podshohlarning buyruqlari bo'yicha yo'q qilinardi chumki, ular xalqni to'g'ri yo'ldan uradi deb hisoblangan.

Badiiy adabiyotning dostonlar, asarlari Xiva va O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida, va Rus mustazib tuzumi davrida bunday adabiyotlar yo'q edi, agarda paydo bo'lsa ham yo'q qilinardi. Uni yaratgan shoir yoki yozuvchi va uni o'qigan odamlar ham yo'q qilinar edi. Shuning uchun u davrda yurt ma'daniyat va ilmiy markazlardan ayrilgan edi.

Berdaq erkinlikka erishish uchun har tomonlama yo'llarni topishga harakat qiladi. Xalqning erkinligi haqida o'ylab, u o'zining afsonaviy qahramonlarini ko'radi. Masalan: "Omongeldi" va "Asan", "Ernazarbiy"lar² edi. Berdaq qoraqalpoq xalqi Xiva xonligiga qarshi chiqqanligini manzur ko'rgan. Ularga "Ernazarbiy" boshliq bo'lgan. Ernazarbiy deganda shoir Ernazarga hurmatini ko'rsatgan. Shu dostonlari bilan Berdaq, Xiva xonlariga o'z nafratini ko'rsata olgan. Berdaq oddiy xalqdan juda havotirlangan edi. U o'zining va xalqining achinarli o'tmishini o'ylab, xalq hayoti davomida haydalardi, qayerda bo'lmasin ularga hujum qilishardi, ularni beayib jazolashardi degan edi. Qozoq kichik juzlari va XVII – XVIII asrlarida Xiva xonlari millatlarni bir – biri bilan munosabatlarini buzishga harakat qilardilar.

Xullas, o'zining eng taniqli asarlarida "Omongeldi", "Oydo'stbiy", "Ernazarbiy", "Bo'lgan emas", "Xalq uchun", "Yaxshiroq" kabilarida Berdaq xalqning erkinligi uchun uning kelajagi uchun kurashganligini yozgan. Bu asarlaridagi har bir so'zlar har qanday insonga ta'sir qilmasdan iloji yo'q. Shoirning chin qalbidan aytilgan so'zlar, xalqning o'tmishi va kelajagi haqida hamma birdek ta'sir qildi.

² Худойбергенов К. Мировоззрение Бердахаю Нукус. 1987. С.245.

www.pedagoglar.uz

39-sod 1-to'plam Yanvar 2025

Berdaqning falsafiy fikrlari hamma asarlarida shunday ishlab chiqilganki, hattoki bizlar uning falsafiy fikrlarini dona – dona anglashimiz va umumlashtirishimizga majbur etadi. Uning asarlaridan shu narsa bizga ma'lum bo'ladiki, u o'z davrining haqiqiy insoni kabi muslimon o'quv yurtlarida ilm olgan asosan islomiy muhitda, jamiyatda tasdiqlangan me'yor qonun qoidalarga rioya qilgan. Berdaq diniy inson edi, shuning uchun bir falsafa savoli javobsiz qoldi. Ya'ni Xudo bu olamni yaratganmi, yoki abadiy mavjud bo'lganmi? To'rt element haqidagi ma'lumotni Berdaq Mirzo Bedilning (1644 – 1721) kitoblaridan o'qiganini bilsak bo'ladi. Berdaq Mirzo Bedilni, Navoiyni, Fuzuliyni, Aristetol vaa Platonni o'zining "Izlardim"³ degan asarida eslatgan. Berdaqning aytishicha u Bedilning hamma asarlari bilan tanishib chiqqan.

Chidam bilan bog'lab belni,

Izlab Qo'ng'iroq, Xitoyni elini.

Kechib daryo, dengiz, ko'lni,

To topguncha izlar edim...

Chor kitobdan nari qochdim,

Navoiydan savod ochdim.

Fuzuliydan durlar sochdim,

Donolarni izlar edim.

³ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.:1987. b 42.

www.pedagoglar.uz

Berdaq qoraqalpoq xalqining ulug' shoiri. Uning asarlarining tematikasi juda boy. Uning poeziyasida qoraqalpoq xalqining butun bir asr ichidagi ijtimoiy, siyosiy turmushning ochiq lavhasi gavdalanadi. Berdaq asarlarining asosiy mavzusi qoraqalpoq xalqining ijtimoiy hayoti, ayanchli og'ir turmushini kuylashga bag'ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. *Barkamol avlod orzusi* T.:2000y.
2. Ahmedova.M. *Falsafa (darslik)*, T.:2006.
3. Худойбергенов К. *Мировоззрение Бердахаю Нукус.* 1987. С.245.
4. Berdaq. *Tanlangan asarlari.* T.:1987. b 42.
5. Худойбергенов К. *Мировоззрение Бердахаю Нукусб* 1987. С325